

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 8

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 186 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 7-avgustda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Benchmarking asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik xususiyatini oshirish.....	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zaynutdinova Umida Djalolovna	
Mehnat resurslarini samarali boshqarish orqali ish bilan bandlikni ta'minlash	20
Shakarov Zafar Gafforovich	
Трансформация человеческого капитала в условиях цифровизации и внедрения искусственного интеллекта в банковскую экосистему	24
С.С. Исмаилов	
“Kreativ iqtisodiyot” va “kreativ industriya”: mohiyati, nazariy jihatlarining tahlili	32
Dusmuxamedov Oybek Suratbekovich	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	37
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Don mahsulotlari tarmog'ida mavjud kamchiliklar va ularning yechimlari	41
Sh.B. Donayev	
Eksportni rivojlantirish iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir	45
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish.....	49
Idirisov Alisher Otajonovich	
Institutsional investorlar faoliyatini tashkil etishning konseptual jihatlarini.....	53
Sultanov Maxmud Axmedovich	
Poverty in developing countries: new problems and solutions.....	57
Amirdjanova Sitara Sunnat kizi	
Факторы, влияющие на успешное функционирование скандинавской модели развития экономики	61
Вохидова Мехри Хасановна	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран	69
Буранова Лола Вахобовна	
Мамлакатimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etishning zarurligi.....	78
Babamatov Tolib Xakimovich	
Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining tashkiliy-huquqiy mexanizmlari	83
S.A.Karabayev	
O'zbekiston tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini amalga oshirish yo'llari	90
Yusupov Aziz Shuxratovich	
Sanoatda raqamli transformatsiyaning shakllanishi va rivojlanishi	95
Gulbayeva Feruza Islamovna	
Oliy ta'lim muassasalarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	102
Sherov Alisher Bakberganovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	107
Sayidova Maftuna Hamroqul qizi	
O'zbekistonda elektron bank xizmatlarini o'zgartirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	111
Umarova Malika Baxtiyarovna	
Оценка влияния налоговой системы на финансовое состояние организаций	116
Умида Юлдашева	
Теоретическое обоснование интернет-маркетинга в социальных сетях.....	120
Арипходжаев Саидамир Фузулиддинович	



Sport tashkilotining marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	127
Ismoilov Sherzod Dilshodovich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda klaster tizimini joriy qilish jarayonlari.....	132
Ziyadullayev G'ayrat Umidulla o'g'li	
Hududlar soliq salohiyatini oshirishda soliq risklarini boshqarishning zamonaviy tendensiyalari	138
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
O'zbekistonning xalqaro bozordagi faoliyatini kengaytirishda marketing strategiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	144
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
Xususiy tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining rivojlanish tendensiyalari.....	148
Jumanazarova Z.K.	
Xalqaro savdoning O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri	154
Rashidov Bekzod Ulug'bek o'g'li, Isayev Laziz Baxtiyorovich	
Oliygochlarni optimallashtirishda sinergiya samarasiga erishish yo'llari	158
Adizov Sanjar Rashidovich	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida bank tizimining barqarorligini ta'minlash asosida aholi kambag'allik darajasini qisqartirish	165
Xoliyorov Murod Qahramon o'g'li, Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Концептуальная основа маркетинга в социальных сетях в туризме.....	174
Касимова Зилола Гуламиддиновна	
O'zbekistonda don mahsulotlari klasterlarida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish	182
Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li	



O'ZBEKISTONDA DON MAHSULOTLARI KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQUARISH VA XO'JALIK FAOLIYATINI RIVOJLANTRISH

ORCID: 0009-0004-8572-2308

Alimov G'ayratjon Abduraxmon o'g'li

Toshkent davlat transport universiteti,

“Transport iqtisodiyoti” kafedrası mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda O'zbekiston qishloq xo'jaligi don mahsulotlari klasterlarini joriy etish va ularni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Sohaga oid ishlab chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Qishloq xo'jaligi va don mahsulotlarini ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Qishloq xo'jaligi, don mahsulotlari, klaster, kooperatsiya, innovatsiya, qishloq xo'jalik klasteri, ishlab chiqarish, ixtisoslashuv, joylashtirish.

Abstract: This thesis describes the advantages of introducing clusters of agricultural grain products of Uzbekistan. Economic indicators of industry-related production are analyzed. The processes of production, storage, processing and sale of agricultural and grain products were mentioned.

Key words: Agriculture, grain products, cluster, cooperation, innovation, agricultural cluster, production, specialization, placement.

Аннотация: В данной тезисе описаны преимущества внедрения кластеров сельскохозяйственной зерновой продукции Узбекистана. Проанализированы экономические показатели отраслевого производства. Были упомянуты процессы производства, хранения, переработки и реализации сельскохозяйственной и зерновой продукции.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, зерновая продукция, кластер, кооперация, инновации, агрокластер, производство, специализация, размещение.

KIRISH

Keyingi yillarda qishloq xo'jaligi va chorvachilik sohalarida xo'jalik yuritish faoliyatini tashkillashtirishning zamonaviy usullarini joriy etilmoqda. Bunga qishloq xo'jaligi va chorvachilik kooperatsiyalari, klasterlarini misol qilib keltirish mumkin. O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmoqlarida klaster usulining joriy etilishi yangi va innovatsion yondashuvdir.

Xususan, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning klaster usuli yo'lga qo'yildi, klasterlarga ajratilgan qishloq xo'jaligi maydonlarining hajmi ekin turlari bo'yicha paxta-to'qimachilikda 62 foizni, chorvachilikda 8 foizni, meva-sabzavotchilikda 7,5 foizni tashkil etmoqda. Shuningdek, zamonaviy resurs tejaydigan texnologiyalarning joriy etilishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari tomonidan yer, suv va moddiy-texnik resurslardan samarali foydalanish, yetishtirilgan xom ashyoni qayta ishlagan holda tayyor mahsulot ko'rinishida iste'molchiga yetkazib berish imkonini bermiqda. Natijada joriy yilda boshqqli don yetishtirishda gektaridan o'r-



tacha 60 sentnerdan hosil olinib, yalpi ishlab chiqarish hajmi 7 mln tonnadan ortiqni tashkil etdi hamda davlatga 3 mln 552 ming tonna don topshirilib, bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 140 foizga oshdi.¹

ADABIYOTLAR SHARHI

Albatta, bu so'zlardan keyin klaster o'zi nima degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Shuning uchun avval klaster o'zi nima ekanligiga bir to'xtalib o'tsak "Klaster" fransuzcha so'z bo'lib, "bog'lam", "guruh", "to'planish", degan ma'nolarni anglatadi. "Klaster" tushunchasi ilk bor 1990-yilda Maykl Porter tomonidan "Davlatlarning raqobatdosh afzalligi" nomli asarida keltirilgan. Klaster bu –to'planib ishni amalga oshirish. Masalan, paxta yetishtirildi, mahsulot ishlab chiqarish uchun uni endi tolaga aylantirish kerak, keyingi qadamda tola ip kalavaga, ip kalava esa matoga aylantiriladi. So'nggi qadamda matodan mahsulot ishlab chiqariladi. Klaster mana shu butun tizimni shakllantirish demakdir.

Qishloq xo'jaligida klasterlarni tashkil quyidagi maqsadlarni oshirish uchun xizmat qiladi:

- Mahsulot yetishtirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni jalb qilish orqali agrotexnik tadbirlarni yangilash, hosildorlikni bir necha barobar oshirish.
- Mahsulot yetishtiruvchilar tomonidan qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish va yakunda olinadigan tayyor mahsulotlarni eksportga yo'naltirish.
- Kam xarajat qilib, ko'p daromad olish. Mahsulot yetishtiruvchilarning moliyaviy holatini yaxshilash.
- Mahsulot yetishtiruvchilar moddiy-texnik bazasini zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari va uskunalari bilan boyitish. Infratuzilma obyektlarini yangilashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Davlatimiz rahbari joriy yil 13-oktyabr kuni Sirdaryo viloyatiga tashrifi doirasida qishloq ahli bilan bo'lib o'tgan suhbatda: "Qishloq xo'jaligining barcha yo'nalishlaridagi klasterlar joylarda tadbirkorlikni rivojlantirishning lokomotivi bo'lishi kerak", hamda "klaster tizimi – bu manfaatdorlik, sohaga ilm-fan va innovatsiyaning kirib kelishi, qishloq xo'jaligining kelajagi va raqobatbardosh bo'lishi demakdir", deb ta'kidladilar.² Biz klaster faoliyatiga oid ba'zi bir raqamlarga to'xtalib o'tdik xolos. Klaster tizimining joriy etilishi misolida sohada hali muammolar ko'pligini, ularni bartaraf etishda keng ko'lamli ishlar olib borilayotganini ko'rish mumkin. Ish bor ekan, muammolar ham yuzaga kelishi tabiiy. Bir so'z bilan aytganda, klaster tizimi nafaqat qishloq xo'jaligi, balki sanoat va xizmat ko'rsatish sohaslarini qamrab olmoqda. Zamon talabiga mos odimlash esa hamisha barcha jabhalarda yutuq va samaralar garovi bo'lib kelgan. Ya'ni klaster boqimandalikka chek qo'yib, erkin va samarali mehnat qilishga undaydi.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda samarali bozor mexanizmlarining mavjud emasligi tarmoqning raqobatbardoshligini oshirish imkonini bermayapti. Qishloq xo'jaligi sohasini diversifikatsiya qilish orqali boshqoli don ekinlaridan yuqori hosil olish, parrandachilik, chorvachilik va baliqchilik tarmoqlarining ozuqaga bo'lgan talabini qondirish, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqtisodiy manfaatdorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentyabrdagi "Don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 806-sonli³ qarori ishlab chiqildi. Chunki O'zbekistonda don mahsulotlarini ishlab chiqarish klasterining tashkil etilishi ushbu sohada iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va butun mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.


TAHLIL VA NATIJALAR MUXOKAMASI

Bugungi kunda mamlakatimizda jami 157 ta g'allachilik klasteri bo'lib, ularga birlashtirilgan yer maydoni 1 038 ming gektarni tashkil qiladi. Ushbu klasterlarda 36,0 mingta fermer xo'jaliklari bilan 957, mingga yer maydonida g'alla yetishtirish bo'yicha hamkorlik olib borilmoqda. G'allachilik klasterlari tomonidan 2020-yilda qiymati 547,2 mlrd so'm (sh.j: 193,3 mlrd so'm o'z mablag'lari, 353,9 mlrd so'm bank kreditlari) va 20,3 mln dollar miqdorda xorijiy kredit mablag'lari hisobiga 65 ta loyihalar ishga tushirilib, 3 695 ta doimiy ish o'rinlari yaratildi (1-rasm).

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentyabrdagi "Boshqoli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.12.2021-y., 09/21/774/1198-son.

2 Esonova S., Qo'zimurodova S., & Qulsaxatova S. (2023). Qishloq xo'jaligi klasterlarida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(2), 5–9. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/9902>.

3 lex.uz/ru/docs/-4529920



1-rasm. O'zbekistonda mavjud g'allachilik klasterlarining soni (hududlar kesimida, 2023-yil)⁴.

2023-yilda 83 ta g'allachilik klasterlari tomonidan 1 trln 164 mlrd so'mlik 122 ta investitsiya loyihalari amalga oshiriladi. Klasterlar tomonidan 234 ming tonna don saqlaydigan ochiq maydonlar, 166 ming tonna yopiq omborlar, 156 ming tonna un mahsulotlari, 3,8 ming tonna non va non mahsulotlari hamda 79 ming tonna ozuqa-yem ishlab chiqarish quvvatiga ega sexlar ishga tushiriladi.

Mamlakatimizda klasterlar tomonidan qayta ishlash, saqlash va quritish bo'yicha 430 ming tonna qo'shimcha quvvatlarni ishga tushirish yuzasidan 96 ta loyiha rejalashtirilgan. Shuningdek, 6 ming gektarda intensiv bog' va 8 ming gektarga yaqin maydonda uzumzor barpo qilish bo'yicha loyihalar ishlab chiqilgan. Joriy yilda 410 million dollarlik mahsulotlar eksporti mo'ljallangan⁵.

Umuman olganda, don bozorining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

- Toshkent viloyati hududiy g'allani qayta ishlashning ichki salohiyatidan ham, qishloq xo'jaligi xom ashyosi sifatida g'allani mintaqalararo bozorda sotishning tashqi imkoniyatlaridan ham foydalanishga yo'naltirilgan;
- viloyatdagi donni qayta ishlash zavodlarining texnologik liniya quvvatlaridan foydalanishni oshirish va chorvachilikni rivojlantirish hisobiga g'alla bozorining haqiqiy sig'imini oshirish imkoniyatlari mavjud;
- donga bo'lgan talab elastik hisoblanadi;
- Toshkent viloyati g'alla bozoridagi asosiy ishlab chiqaruvchilar fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi tashkilotlari hisoblanadi;
- g'alla hosildorligiga ta'sirning salmoqli ulushi (60-70%) qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish omillariga to'g'ri keladi;
- Toshkent viloyati don ishlab chiqarishi yetarlicha texnik jihozlanmagan;
- don ishlab chiqarish samaradorligining darajasi bozordagi kon'yunktura sharoitlariga bog'liq;
- don taklifi narx bo'yicha elastik emas, ya'ni bir xil sharoitlarda narxning pasayishi don ishlab chiqarishning kamayishiga olib kelmaydi;
- hududiy g'alla bozorlarida iqtisodiy o'sish uchun dastlabki shart-sharoitlar yaratilmagan;
- don ishlab chiqaruvchi qishloq xo'jaligi tashkilotlarida amalga oshirilayotgan rivojlanish strategiyalarining asosiy qismi normal va barqaror rivojlanish strategiyalaridir;
- strategik tahlil natijasida g'alla agrobiznesining tashqi tahdidlarini ichki imkoniyatlari bilan tenglashtirish mumkinligi aniqlandi.

⁴ <https://www.agro.uz/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/#1627990188176-c1f6ec03-0c34>.

⁵ Prezident ishtirokida klasterlar faoliyatini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz (gazeta.uz).



Toshkent viloyatida yetishtiriladigan don ekinlarining aksariyati faqat hayvonlar ozuqasi sifatida foydalanishga yaroqli. Shu munosabat bilan viloyatda yem-ozuqa tayyorlash va g'allani qayta ishlash tuzilmasini tahlil qilishga qaror qilindi. Avval aytilganidek, u bir vaqtning o'zida don va yem-xashakni qayta ishlay oladi. Don ekinlari qayta ishlash jarayonida ko'p mehnat va xarajatlarni talab qiladi, tayyor mahsulot bozoridagi raqobat esa juda kuchlidir. Bundan tashqari, yem-xashakka mo'ljallangan donni qayta ishlashdan olinadigan asosiy mahsulot omuxta yem hisoblanadi. Omuxta yem – bu hayvonlarning ma'lum bir turi, zoti va mahsuldorligi uchun to'laqonli ozuqa olish uchun aralashmalardan tozalangan va kerakli darajada maydalangan ozuqa turidir. Viloyatda omuxta yemlarning asosiy iste'molchilari parrandachilik va chorvachilik korxonalari, shuningdek, shaxsiy chorva mollari bo'lgan qishloq xo'jaligi korxonalari hisoblanadi.

Yuqori sifatli omuxta yem bilan ta'minlash chorvachilikning rivojlanish darajasi va iqtisodiy samaradorligini belgilab beruvchi asosiy omillardan biridir. Buning sababi shundaki, ozuqaning narxi chorvachilik mahsulotlari tannarxining 65-75 foizini tashkil qiladi. Shuning uchun omuxta yem sanoati milliy agrosanoat majmuasini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida ishchi kuchi ortiqcha, yer resurslari yetarsiz bo'lgan Toshkent viloyatida klaster shakli, eng avvalo, viloyatda qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalarini tashkil etishning eng yaxshi shakli hisoblanadi. Ushbu usulning afzalligi shundaki, u mintaqaviy va ijtimoiy xususiyatlarni hisobga oladi. Binobarin, u hududning samarali rivojlanishiga, innovatsion ishlab chiqarish tizimlari va mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishga, bandlik va soliqqa tortish darajasini ko'tarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlarimizga ko'ra Toshkent viloyatida integratsiyalashgan qishloq xo'jalik klasterini yaratish va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, agrosanoat majmualarini innovatsion rivojlantirishni muvofiqlashtirish va xizmatlar ko'rsatish uchun barcha sharoitlar mavjud.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qiladigan bo'lsak don klasterida ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatini rivojlantirish mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi. Klasterlarning tashkil etilishi mahsulot tannarxini pasaytirish, mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonda xalqaro tajriba va ilg'or texnologiyalarni hisobga olgan holda don mahsulotlarini ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirishda davlat, tadbirkorlar va ilmiy muassasalar hamkorlikda ish olib borishi muhim. Shundagina strategik ahamiyatga ega bo'lgan ushbu sohada muvaffaqiyatlarga erishish, qishloqlar, butun jamiyat obodligini ta'minlash mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-sentyabrdagi "Boshqoli don yetishtirishda klaster tizimini bosqichma-bosqich joriy etish orqali yuqori hosildorlikni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.12.2021-y., 09/21/774/1198-son.
2. Esonova S., Qo'zimurodova S., Qulsaxatova S. (2023). Qishloq xo'jaligi klasterlarida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish. Евразийский журнал технологий и инноваций, 1(2), 5–9. <https://www.in-academy.uz/index.php/ejti/article/view/9902>.
3. Prezident ishtirokida klasterlar faoliyatini rivojlantirish masalalari muhokama qilindi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz (gazeta.uz).
4. <https://www.agro.uz>
5. Akmal Durmanov, Azamat Tabayev, Saidakmal Kasimov. Methodology for Calculating Maximum Income in the Greenhouse Economy. AIP Conference Proceedings, 2023. №3 P.256-260 <https://www.scopus.com>
6. Kasimov Saidakmal, Kholikova Rukhsora. Classification of enterprise goals in strategic management at cotton processing complex. Journal of Critical Reviews. 7 (6) 2020. P. 185-189 <https://www.jcreview.com>

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

